

ANDIJON VILOYATIDA OLIY TA'LIM TIZIMI



2019-2020 o'quv yili boshiga

Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish orqali yoshlarni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, hamda raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyot tarmoqlariga kiritilayotgan innovatsion texnologik yangilanishlar qachon samara beradi? Qachonki, bu o'zgarishlarni yurakdan his qilib, eng zamonaviy bilim va malaka talablarini o'zida jamlagan yetuk mutaxassis xodim bilan ta'minlansa.

Buning uchun avvalambor, tashabbuskor islohatchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarni tarbiyalashimiz zarur.

2019-2020 oquv yilida Andijon viloyatida hozirgi zamon talablariga javob beradigan malakali yosh kadrlarni tarbiyalash uchun 5 ta oliy ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan 3 tasi universitet 1 tasi xududiy filial hisoblanadi. Ushbu o'quv yilidan "SHARDA UNIVERSITY UZBEKISTAN" mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi uniyersiteti talabalar qabul qilishni boshladi.



Ma'lumot uchun:


Oliy ta'lim - umumiy o'rta ta'lim , o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga shakllanadi hamda 2 bosqichga ega;

- ***Bakalavriat*** – mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida 4 yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir;
- ***Magistratura*** - aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilib btradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida 2 yil davom etadigan oily ta'limdir.

2019-2020 o'quv yilida viloyatdagi oliy ta'lim muassasalarida 26036 nafar talabalar ta'lim olmoqdalar . Ularning 13119 nafari (50,4%) ni qizlar tashkil etadi. Talabalarining 20932 nafari (80,4%) ni kunduzgi va 5104 nafari (19,6%) ni sirtqi bo'lim talabalari tashkil etadi. O'tgan o'quv yiliga nisbatan talabalar soni 4320 nafarga ortgan.

Davlat granti bo'yicha ta'lim olayotgan talabar 5000 nafardan iborat.

Andijon viloyatidagi oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar soni dinamikasi, (ming nafar)



2019-2020 o'quv yilida viloyatdagi OTM lariga 7619 nafar talabalar qabul qilindi. Ulardan 5921 nafari kunduzgi, 1698 nafari sirtqi bo'lim talabalaridir. Davlat granti bo'yicha 1333 nafar talaba qabul qilindi. Ularning 1318 nafari


kunduzgi va 15 nafari sirtqi bo'lim talabalari hisoblanadilar. Jami qabul qilingan talabalarning 4152 nafari (54,5) ni qizlar tashkil etadi.



Ma'lumot uchun:

Oliy ta'lim muassasalari - beriladigan talablar bo'yicha oliy toifali mutaxassislarni tayorlaydi. O'qitish turlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalari : ishdan bo'shagan va ishdan ajralmagan holda o'qitishlarga bo'linadi.

Andjion viloyati bo'yicha 2019 yilda 4293 nafar talaba oliy ta'lim muassasalarini bitirdilar. Ulardan 1696 nafari (39,5%) ni qizlar tashkil etadi. Bitiruvchilarning umumiy sonidan 1252 nafar talabalar davlat granti bo'yicha tamomladilar.



2019-2020 yilida oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatidagi talabalar soni 25217 nafardan iborat. Ularning 20113 nafari kunduzgi bo'limda, qolgan 5104 nafari sirtqi bo'limda ta'lim olmoqdalar.



Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichida ta'lim olayotgan talabalarning 4718 nafari davlat granti bo'yicha o'qimoqdalar. Ularning 4704 nafari kunduzgi, qolgan 14 nafari sirtqi bo'lim talabalari hisoblanadilar.


Talabalarining umumiy sonidan 12828 nafarini qizlar tashkil etadi. Ularning 9221 nafari kunduzgi, qolgan 3607 nafari sirtqi bo'limda ta'lim olmoqdalar.

Yangi o'quv yilida oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga jami 7179 nafat talaba qabul qilindi. Ularning 5481 nafari kunduzgi, qolgan 1673 nafari sirtqi bo'lim talabalar hisoblanadilar.

2019 yilda bakalavriat bosqichini 4122 talabalar tamomladilar. Ulardan 1183 nafari davlat granti bo'yica ta'lim olgan talabalar hisoblanadi. Bitiruvchi talabalarining 1622 nafari qizlardan iborat bo'lib, ular jami bitiruvchilarning 39,3 % ni tashkil etadi

Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichiga

qabul qilingan va bitirgan talabalar soni (kishi hisobida)



2020 yilda viloyatdagi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichini 5535 nafar talaba bitirishi kutilmoqda. Ularning 4363 nafari kunduzgi bo'lim, qolgan 1172 nafari sirtqi bo'lim talabalar sanaladi.

2019-2020 o'quv yilida Andijon viloyatidagi oliy ta'lim muassasalarining 4 tasida magistratura bosqichi mavjud. Ularda 819 nafar talabalar kunduzgi bo'limda ta'lim olmoqdalar. Magistrnlarning 282 nafari davlat granti bo'yicha o'qimoqdalar. Jami magisrtatura bosqichidagi talabalarning 291 nafari yoki 35,5 % qizlardan iborat.



Yangi o'quv yilida magistratura bosqichiga 440 nafar talabalar qabul qilindi. Ulardan 173 nafari , yani 39,3 % davlat granti bo'yicha ta'lim olishga sazovor bo'ldilar. Magistrnlarning 172 nafari (39,1%) ni qizlar tashkil etadi.


2019 yilda 171 nafar talaba oily ta'lim muassasalarini bitirdilar. Ularning 69 nafari davlat granti bo'yicha tamomladilar. Jami bitiruvchilarning 74 nafari qizlardan iborat.

Kelgusi 2020 yilda oily ta'lim muassasalarini 242 nafar magistrlar bitirishi kutilmoqda.



2019-2020 o'quv yilida Andijon viloyatidagi OTM ning bakalavriat bosqichiga jami 78366 nafar abituriyentlardan ariza topshirilgan. Ulardan 7179 tasi talabalikka qabul qilindi. Bir o'rin uchun 10,9 abituriyentning arizasi to'g'ri kelmoqda.

Andijon viloyati oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichiga topshirilgan arizalar dinamikasi (ming kishi)



Ma'lumot uchun:

Oliy ta'lim muassasalari talabalari soni – oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va o'quv yili boshida ro'yhatda turganlar soni.

Oliy ta'lim muassasalarini bitirganlar - ta'lim kursini to'liq tugatgan va tegishli ma'lumot (mutaxassislik) ga ega bo'lgan shaxslar

Viloyatdagi oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqchiga jami 1347 ta talabalardan ariza topshirilgan. Ulardan 440 nafari magistirlikka qabul qilindi. Bir o'ringa 3,1 ta ariza to'g'ri kelmoqda.



Oliy ta'lim muassasalari yurudik maqomga ega. Andijon viloyatida oliy ta'lim muassasalarining quyidagi turlari faoliyat ko'rsatmoqda:




Universitet - oliy va undan keyingi ta'lim uchun ta'limni bir necha yo'nalishda beradi, turli sohalardagi mutaxassislarning malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi, fanning turli yo'nalishlarida fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib boradi, ilm sohasi bilan chambarchas bog'liq ilmiy va metodik markaz hisoblanadi



Institut – oliy ta'limdan keyingi o'quv dasturlarini bajarishni ta'lim va fanning ma'lim bir me'yorida amalga oshiradi. Mutaxassislarni ma'lum bir sohada qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanadi, fundamental va amaliy tadqiqot ishlarini olib boradi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi (kishi hisobida)



Oliy ta'lim muassasalaridagi jami 26036 nafar talabalardan 22482 nafari o'zbek tilida, 3235 nafari rus tilida, 260 nafari ingliz tilida va 55 nafar talabalar qirg'iz tilida ta'lim olmoqdalar.

2019-2020 o'quv yilida Andijon viloyatidagi oliy ta'lim muassasalarida talabalarga 2346 nafar (shtatdagi xodimlar) professor-o'qituvchilar ta'lim bermoqdalar. Bundan tashqari 242 nafar pedagog-xodimlar o'rindosh bo'lib faoliyat olib bormoqdalar. Jami pedagog xodimlardan 987 nafarini ayollar tashkil etadi.

Pedagog-xodimlardan 97 nafari fan doktori ilmiy darajasiga, 384 nafari fan nomzodi ilmiy darajasiga 74 nafari falsafa doktori ilmiy darajasiga ega, hamda 55 nafari professor, 306 nafari dotsent ilmiy unvonini olishga sazovor bo'lgan.



Viloyatdagi oliy ta'lim muassasalarida 77 nafar pedagog-xodimlar ***informatika va kompyuter texnologiya fanidan*** ta'lim bermoqdalar. Ushbu muassasalarda 59 ta kompyuter sinflari mavjud bo'lib, ular 1175 ta kompyuter, 5 tadan video-proektor, elektron va interaktiv doskalar bilan jihozlangan.

Anion viloyati statistika boshqarmasi

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Telefon: 0374-224-28-69